



FARG'ONA VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

FARG'ONA
VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

2024- yil
yanvar-iyun



FARG'ONA VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2024- yil 1- iyul holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Farg'ona viloyatida 2024- yil 1- iyul holatiga doimiy aholi soni 4 098,7 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 37,2 ming kishiga yoki 0,9 % ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni 2 330,7 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 56,9 %), qishloq aholisi soni 1 768,0 ming kishi (43,1 %) ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

4 098,7 ming
kishi

Tabiiy o'sish

(+) 38,5 ming
kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar


**56,9%**

Qishloq

**43,1%**


Farg'ona viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2024- yil yanvar-iyun



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2024- yil 1- iyul holatiga



2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining 56,1 %i mehnatga layoqatli yoshdagilar, 31,6 %i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar va 12,3 %i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi


2024- yil 1- yanvar holatiga



2024- yil 1- yanvar holatiga Farg'ona viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni 249,7 ming kishini tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib, 77,8 ming kishini tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni 233,2 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni 85,2 ming kishini tashkil etgan.

Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi


2024- yil 1- yanvar holatiga



2024- yilning 1- yanvar holatiga Farg'ona viloyati aholisining kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 75,7 yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun 73,9 yoshga, ayollar uchun esa 77,5 yoshga teng. Shahar joylar 75,2 yosh qishloq joylar uchun kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 76,4 yoshni tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024- yil 1- iyul holatiga




Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil 1- iyul holatiga, ming kishi

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	4 014,6	4 098,7	102,1
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	318,1	324,9	102,1
Qo'qon	306,3	311,1	101,6
Quvasoy	100,0	102,1	102,1
Marg'ilon	248,8	255,6	102,7
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	225,9	230,5	102,0
Qo'shtepa	206,0	210,5	102,2
Bag'dod	230,1	235,3	102,3
Buvayda	244,1	249,8	102,3
Beshariq	240,0	244,3	101,8
Quva	273,0	277,9	101,8
Uchko'prik	238,7	244,1	102,3
Rishton	214,3	218,8	102,1
So'x	82,6	84,6	102,4
Toshloq	216,4	219,6	101,5
O'zbekiston	232,6	238,1	102,4
Farg'ona	218,9	223,5	102,1
Dang'ara	174,7	178,9	102,4
Furqat	125,7	128,3	102,1
Yozyovon	118,4	120,8	102,0

Farg'ona viloyati bo'yicha aholi zichligi

2024- yil 1- iyul holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Farg'ona viloyatida 2024- yil 1- iyul holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha 606,4 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 12,4 kishiga ortgan (2023- yil 1-iyul 1 kv.km.ga 594,0 kishi).


Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligini eng yuqori ko'rsatkichi Marg'ilon shahrida 4 913,5 kishi, Qo'qon shahrida 4 835,3 kishi, Farg'ona shahrida 3 003,9 kishi, Toshloq tumanida 905,0 kishi, Uchko'prik tumanida 900,3 kishi, Buvayda tumanida 895,3 kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Yo'zyovon tumani 296,8 kishi, Beshariq tumanida 315,7 kishi, O'zbekiston tumanida 353,3 kishi, Oltiariq tumanida 365,4 kishi, Farg'ona tumanida 376,3 kishini tashkil etgan.

Farg'ona viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi

2024- yil 1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR




Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-iyun, kishi

Qo'qon sh.	3 840	24,9 ‰
Uchko'prik t.	3 385	28,0 ‰
Farg'ona sh.	3 372	21,0 ‰
Marg'ilon sh.	3 135	24,8 ‰
Buvayda t.	3 079	24,9 ‰
Bag'dod t.	2 895	24,9 ‰
Quva t.	2 830	20,6 ‰
Qo'shtepa t.	2 727	26,2 ‰
Oltiariq t.	2 719	23,8 ‰
Farg'ona t.	2 586	23,4 ‰
O'zbekiston t.	2 520	21,4 ‰
Toshloq t.	2 516	23,1 ‰
Rishton t.	2 388	22,0 ‰
Beshariq t.	2 265	18,7 ‰
Dang'ara t.	2 216	25,0 ‰
Furqat t.	1 431	22,5 ‰
Yozyovon t.	1 258	21,0 ‰
Quvasoy sh.	1 165	23,0 ‰
So'x t.	677	16,2 ‰

2024- yilning yanvar-iyun oylarida 47,0 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 23,2 promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 1,1 promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida 24,3 promilleni tashkil etgan).

VAFOT ETGANLAR



Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti


2024- yil yanvar-iyun, kishi

Farg'ona sh.	863	5,4 ‰
Qo'qon sh.	709	4,6 ‰
Quva t.	555	4,0 ‰
Marg'ilon sh.	534	4,2 ‰
Beshariq t.	511	4,2 ‰
Oltiariq t.	497	4,4 ‰
O'zbekiston t.	492	4,2 ‰
Farg'ona t.	492	4,4 ‰
Uchko'prik t.	481	4,0 ‰
Toshloq t.	430	4,8 ‰
Dang'ara t.	426	4,8 ‰
Bag'dod t.	421	3,6 ‰
Buvayda t.	421	3,4 ‰
Qo'shtepa t.	401	3,9 ‰
Rishton t.	399	3,7 ‰
Furqat t.	272	4,3 ‰
Quvasoy sh.	211	4,2 ‰
Yozyovon t.	208	3,5 ‰
So'x t.	140	3,3 ‰

2024- yilning yanvar-iyun oylarida 8,5 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga o'lim koeffitsiyenti 4,2 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'zgarish bo'lmaganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida 4,2 promilleni tashkil etgan).


O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-iyun, kishi



2024- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan o'lim holatining 62,2 %i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,2 %i – o'simtalardan, 5,4 %i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 6,2 %i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,0 %i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 0,8 %i – yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, 12,2 %i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR




Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti 2024- yil yanvar-iyun, birlik

Qo'qon sh.	785	5,1 ‰
Farg'ona sh.	771	4,8 ‰
Quva t.	711	5,2 ‰
Marg'ilon sh.	597	4,7 ‰
Rishton t.	595	5,5 ‰
Oltiariq t.	569	5,0 ‰
Farg'ona t.	568	5,1 ‰
Buvayda t.	567	4,6 ‰
Bag'dod t.	549	4,7 ‰
Uchko'prik t.	548	4,5 ‰
Beshariq t.	544	4,5 ‰
O'zbekiston t.	538	4,6 ‰
Dang'ara t.	455	5,1 ‰
Qo'shtepa t.	441	4,2 ‰
Toshloq t.	433	4,0 ‰
So'x t.	335	8,0 ‰
Furqat t.	313	4,9 ‰
Yozyovon t.	220	3,7 ‰
Quvasoy sh.	219	4,3 ‰

2024- yilning yanvar-iyun oylarida 9,8 mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga nikoh koeffitsiyenti 4,8 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 0,3 promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida 5,1 promille bo'lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-iyun, birlik

Farg'ona sh.	277	1,7 ‰
Qo'qon sh.	269	1,7 ‰
O'zbekiston t.	147	1,2 ‰
Marg'ilon sh.	144	1,1 ‰
Farg'ona t.	137	1,2 ‰
Uchko'prik t.	130	1,1 ‰
Beshariq t.	129	1,1 ‰
Bag'dod t.	127	1,1 ‰
Oltiariq t.	122	1,1 ‰
Rishton t.	121	1,1 ‰
Quva t.	116	0,8 ‰
Buvayda t.	109	1,9 ‰
Dang'ara t.	106	1,2 ‰
Toshloq t.	97	0,9 ‰
Furqat t.	81	1,3 ‰
Qo'shtepa t.	78	0,7 ‰
Quvasoy sh.	75	1,5 ‰
Yozyovon t.	54	0,9 ‰
So'x t.	51	1,2 ‰

2024- yilning yanvar-iyun oylarida 2,4 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,2 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 0,4 promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida 1,6 promille bo'lgan).

AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)


2024- yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni 5 181 kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami 6 497 kishini tashkil etib, migratsiya saldosi minus 1 316 kishini tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni

2024- yil yanvar-iyun, kishi

	Ko'chib kelganlar Jami	Ko'chib ketganlar Jami
Farg'ona viloyati	5 181	6 497
<i>shaharlar:</i>		
Farg'ona sh.	1 809	1 283
Qo'qon sh.	407	603
Quvasoy sh.	201	197
Marg'ilon sh.	226	717
<i>tumanlar:</i>		
Oltiariq t.	114	210
Qo'shtepa t.	381	250
Bag'dod t.	27	205
Buvayda t.	102	187
Beshariq t.	64	365
Quva t.	177	335
Uchko'prik t.	63	252
Rishton t.	115	257
So'x t.	295	71
Toshloq t.	222	283
O'zbekiston t.	90	351
Farg'ona t.	440	441
Dang'ara t.	204	228
Furqat t.	161	163
Yozyovon t.	83	99

JAMI KO'CHIB KELGANLAR




Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-iyun, kishi

Farg'ona sh.	1 809	11,3 ‰
Farg'ona t.	440	4,0 ‰
Qo'qon sh.	407	2,6 ‰
Qo'shtepa t.	381	3,7 ‰
So'x t.	295	7,0 ‰
Marg'ilon sh.	226	1,8 ‰
Toshloq t.	222	2,0 ‰
Dang'ara t.	204	2,3 ‰
Quvasoy sh.	201	4,0 ‰
Quva t.	177	1,3 ‰
Furqat t.	161	2,5 ‰
Rishton t.	115	1,1 ‰
Oltiariq t.	114	1,0 ‰
Buvayda t.	102	0,8 ‰
O'zbekiston t.	90	0,8 ‰
Yozyovon t.	83	1,4 ‰
Beshariq t.	64	0,5 ‰
Uchko'prik t.	63	0,5 ‰
Bag'dod t.	27	0,2 ‰

2024- yilning yanvar-iyun oylarida 5,2 mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti 2,2 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 0,4 promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida 2,6 promille bo'lgan).

JAMI KO'CHIB KETGANLAR



Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-iyun, kishi

Farg'ona sh.	1 283	8,0 ‰
Marg'ilon sh.	717	5,7 ‰
Qo'qon sh.	603	3,9 ‰
Farg'ona t.	441	4,0 ‰
Beshariq t.	365	3,0 ‰
O'zbekiston t.	351	3,0 ‰
Quva t.	335	2,4 ‰
Toshloq t.	283	2,6 ‰
Rishton t.	257	2,4 ‰
Uchko'prik t.	252	2,1 ‰
Qo'shtepa t.	250	2,4 ‰
Dang'ara t.	228	2,6 ‰
Oltiariq t.	210	1,8 ‰
Bag'dod t.	205	1,8 ‰
Quvasoy sh.	197	3,9 ‰
Buvayda t.	187	1,5 ‰
Furqat t.	163	2,6 ‰
Yozyovon t.	99	1,7 ‰
So'x t.	71	1,7 ‰

2024- yilning yanvar-iyun oylarida 6,5 mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti 3,2 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 0,3 promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-mart oylarida 2,9 promille bo'lgan).

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Tel: 73 241-97-74